

O‘ZBEK HIKOYALARIDA DAVR RUHI IFODASI**Muhammadiyeva Aziza Olimjon qizi****Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat****O‘zbek tili va adabiyoti****Universitetining 3-kurs talabasi****Azizamuhmadiyeva318@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20637593>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada hikoyachilik an'analari haqida ma' lumotlar beriladi. Unda turli tarixiy davrlarda yaratilgan hikoyalarda ijtimoiy muhit, inson tafakkuri, ma'naviy qadriyatlar va zamon talablari qanday aks etgani yoritiladi. Hikoya janrining ixchamligi va ta'sirchanligi orqali davrning muhim muammolari, ruhiy kechinmalari hamda ijtimoiy ziddiyatlari badiiy obrazlar vositasida ifodalanishini haqida so'z yuritiladi. Maqolada ayrim hikoyalar tahlil qilinadi va davr ruhi ochib beriladi.

Kalit so'z: Hikoyachilik an'analari, davr ruhi, Ona obrazi, Ota va o'g'il munosabati, Oila qadri

Annotation: This article provides information about storytelling traditions. It highlights how the social environment, human thinking, spiritual values, and the demands of the time are reflected in stories created in different historical periods. It discusses how, through the conciseness and emotional impact of the short story genre, important issues of the era, psychological experiences, and social conflicts are expressed through artistic images. The article also analyzes several stories and reveals the spirit of the time.

Key words: Storytelling traditions, spirit of the era, mother image, father-son relationship, family values.

Аннотация: В данной статье представлена информация о традициях повествовательного жанра. Освещается, как в рассказах, созданных в разные исторические периоды, отражаются социальная среда, человеческое мышление, духовные ценности и требования времени. Рассматривается, как благодаря краткости и выразительности жанра рассказа важные проблемы эпохи, психологические переживания и социальные противоречия передаются через художественные образы. В статье также анализируются отдельные рассказы и раскрывается дух эпохи.

Ключевые слова: традиции повествования, дух эпохи, образ матери, отношения отца и сына, семейные ценности.

Kirish: O‘zbek hikoyachiligi boy tarixga ega. Adabiyotshunos olim U. Normatov qayd qilganidek: XX - XXI asr o‘zbek hikoyachiligi o‘zbek xalqining tarixi madaniyati va ruhiyatini to‘laqonli aks ettiruvchi boy manba hisoblanadi. Bugungi kunda o‘zbek adabiyotida yaratilgan hikoyalar o‘zining samaradorligi bilan boshqa adabiyotlardan ajralib turadi. Yaratilgan nodir namunalarni o‘qish kitobxonlarga estidek zavq beradi va fikrlashga undaydi. Hikoya adabiy turning kichik janri hisoblanadi. Hikoya shakllari kichik bo‘lsa ham uning zaminida cheksiz ma'nolar mujassamlashadi. O‘zbek hikoyalarida davr ruhi tasviri o‘zgacha tarzda ochib beriladi. XX asr boshlarida yaratilgan hikoyalarda davr ruhi tasviri ochib berilgan. Xususan Cho‘lponning “Novvoy qiz”, “Qor qo‘ynida lola” A.Qodiriyning “Juvonboz”, “Uloqda” hikoyalarida nohaqliklar ijtimoiy muhit tasvirlangan. Qolaversa, bu asrda yaratilgan hikoyalarda xulq odob - axloq masalalari yoritilishi bilan o‘zgachadir va yaratilgan hikoya voqealari kitobxonlarni ongida ko‘zgudek aks etadi.

Hikoyachiligimiz davrlar osha rivojlanib borayotganligi yaratilayotgan hikoyalarni o‘qish davomida ko‘rishimiz mumkin. Keyingi yillarda yaratilgan hikoyalar yillar o‘tsa ham o‘zining qiymatini yo‘qotmagan. Bu davr adabiyotida O‘tkir Hoshimov, Abdulla Qahhor Odil Yoqubov kabi ijodkorlarning bir qator hikoyalarini ko‘rishimiz mumkin. Biz bu o‘rinda kitobxonlarga birdek ma‘qul bo‘lgan hikoyalarga to‘xtalib o‘tamiz. Adabiyotshunos olim O. Sharafiddinov aytganidek: bizda jahonning har qanday talablariga javob bera oladigan yuksak asarlar yaratildi deb baralla aytishimiz mumkin.¹ Shu nuqtai nazardan O‘. Hoshimovning ijodida ham bu yo‘nalishni ko‘rish mumkin. O‘ Hoshimov hikoyalari o‘zbek xalqining adabiy merosi hisoblanib ular orqali yozuvchi xalq dardini ko‘tarib chiqqan. Yozuvchining” Urushning so‘nggi qurboni “hikoyasida o‘ziga xos tasvirlarni ko‘ramiz. Adib urush oqibatida yo‘qchilikdan charchagan oilani birgina qulupnay misolida tasvirlagan”. Kambag‘alning ekani unmaydi, bolasi ko‘paydi. Shu kunimdan ko‘ra urushga borib o‘lib keta qolganim yaxshiydi”. Hikoya qahramoni Shoikrom tilidan aytilgan bu fikrlar o‘quvchilarni chuqur o‘yga to‘ldiradi. O‘quvchi bu talqinlarni o‘qir ekan urush ayanchli ekanini sezadi. Hikoya bosh qahramoni Umri xola obrazi orqali haqiqiy o‘zbek onasi hamma farzandlarini bir ko‘zda ko‘radigan ayol, farzandlariga bo‘lgan mehri kuchli tasvirlangan. Bir kunda hammani yostig‘ini quritgan urush haqiqatlari yoritiladi. Hikoyaning fojia bilan tugashi bularning hammasiga urush aybdor. Shuningdek, yanga hikoyasi kichik hikoya bo‘lishiga qaramay insonning qalbida o‘zgacha tuyg‘uni uyg‘otadi. Hikoyaning bosh qahramoni yanga bo‘lib yanga samimiy inson sifatida ta‘svirlangan. U o‘z kuchi bilan bir oilani birlashtirdi. U o‘zini o‘ylamay o‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘zadi. Hayotida og‘ir kunlar bo‘lsa ham hammasini sabr- bardoshi bilan yengadi. Hikoyada oqila kamtar mehribon ayol timsoli tasvirlangan. Bu hikoyada o‘zgacha ruhni sezishimiz mumkin. Yozuvchi bu hikoya orqali oilaga bo‘lgan muhabbatni sadoqatni o‘zgacha tarzda ochib bergan.

Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasida ijtimoiy haqiqatlar tengsizliklar va sodda bolalik yoritilgan. "Muzqaymoq" hikoyasi, oddiy hikoya bo‘lib ko‘rinsada realistik ruhda yozilgan. Hikoyada birgina muzqaymoq ota va bolaning bir - biriga munosabatlari hayotning murakkabliklari tasvirlangan. Hikoyada dadasi olib bergan muzqaymoqni yeyish bola uchun orzu edi. Bolani shu orzusi uning ruhiy dunyosini ota ruhiga tashnaligini bildiradi. Hikoya so‘ngida ota o‘g‘liga muzqaymoq olib berolmagani ko‘nglida armon bo‘lib qoladi. Hikoyada har bir o‘quvchi bolaga e‘tibor va mehr qanchalik kerakligini his qiladi. Abdulla Qahhor yaratgan hikoyalarda ham o‘ziga xos uslubni ko‘ramiz. Adibning "Ming bir jon", "Dumli odamlar", "Daxshat", "Anor", "Bemor" hikoyalarida reallik davr ruhi ifodalari tasvirlanadi. Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshov aytganidek: olim ijodida o‘zga adabiyotlar xosliklarni uning yaratgan asarlaridan bilamiz.² "Anor" hikoyasi 1940-yilda yaratilgan realistik ruhda hikoyalardan biridir. Hikoya ikkinchi jahon urushi davrida yozilgan. Hikoyaning "Anor" deb nomlanishi bejiz emas. Anor mehr va sadoqat ramzi. Anorning qizilligi va donalari ibo-hayo, or-nomus samimiylikni eslatadi. Hikoya qahramoni Turobjon hayotning qiyinchiligi tufayli ayoliga anor olib berolmaganligi uchun vijdon azobida qiynaladi. Buni "O‘zim umrimda bir marta yemaganman shokirxo‘ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganida qozonga ammamning jo‘jasi tushib ketgandi, shu jo‘jani yalaganman" degan so‘zlaridan anglash mumkin. Hikoya qisqa yozilgan lekin hikoyani o‘qish o‘quvchini chiqur o‘yga toldiradi. Hikoyada "Anor" obrazi orqali jamiyatdagi chirkinch illatlar ochib beriladi. Anor bahonasida Turobjon va ayoli o‘rtasida tortishuvlar yuzaga keladi.

¹Sharafiddinov O. Adabiyot – hayot darsligi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010.

²Yo‘ldoshov Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

- E, hoy, anor olib bermadimmi? -dedi Turobjon mayin tovush bilan, sira anor olib kelmadimmi?

-Yo‘q! -dedi xotini birdan boshini burib.

-O‘tgan bozor kuni yegan anoringni o‘ynashing olib kelganmidi?!

O‘quvchilar bu hikoyani o‘qib o‘zi xulosa chiqara oladi. Hikoyada "Anor" timsoli muammolarni va o‘sha davrning nohaqliklarini yoritgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotida yaratilgan hikoyalar inson qalbining tub- tubigacha yetib boradi. Yaratilgan hikoyalardan yozuvchilar qahramonlar orqali o‘zining fikr mulohazalarini beradi va davr kamchiliklarini yutuqlarini qolaversa davr ruhini ifodalaydi. Paydo bo‘lgan hikoyalar o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida gavdalanadi Yozuvchilar voqealar orqali va qahramonlar orqali o‘zlarining fikr mulohazalarini beradi. Yozilgan har bir hikoyada davr muammolari to‘liq ifodalanadi. Qahramonlar xarakteri ularning ichki kechinmalari his tuyg‘ulari va ba’zi o‘rinda qahramon ismlari ham davrning mohiyatini ochib beradi. O‘ Hoshimov, A. Qahhor, O.Yoqubov dek yozuvchilar yaratgan asarlarni O‘qish bugungi kun kitobxonlarga badiiy zavq beradi. Yillar o‘tibdiki o‘zbek adabiyotida yaratilayotgan asarlarni 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan kitobxonlar sevib mutolaa qilishadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O.Sharafiddinov. Adabiyot – hayot darsligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
2. Q Yo‘ldoshov Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
3. 6-sinf Adabiyot darsligi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.